

ASOSIY KO'RSATKICHLARI

- 2025-yilning birinchi 9 oyi yakunlariga ko'ra, savdolarning umumiy hajmi 14,00 trillion so'm (1,09 milliard dollar)ni tashkil etdi, bu 2024-yilning 9 oyiga nisbatan 10,39 trillion so'mga yoki 4 barobarga ko'pdir.
- Ushbu hajmning 7,49 trln so'm (586,29 mln dollar)i yoki 53,52 foizi birja kotirovkalash varag'iga kiritilgan qimmatli qog'ozlar bilan tuzilgan bitimlarga to'g'ri keldi. Qolgan savdo hajmi uyushgan birjadan tashqari bozorda (listingdan tashqari savdo maydonchasi, LTSM) tuzilgan bitimlar hisobiga shakllandi.
- Tuzilgan bitimlarning umumiy soni 328 375 tani tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan nisbatan 68 285 taga yoki 17,21 foizga kamaydi. Shundan birja kotirovkalash varag'iga kiritilgan qimmatli qog'ozlar bilan 281 127 ta bitim, uyushgan listingdan tashqari bozorda esa 47 248 ta bitim tuzildi.
- O'rtacha kunlik savdolar hajmi 74,49 mlrd so'm (5,81 mln dollar)ni, o'rtacha kunlik bitimlar soni esa 1 747 tani tashkil etdi.
- Davr yakunlariga ko'ra, UCI indeksi 7,01 foizga oshib, 701,05 punkt darajasida yopildi.

BOZOR SHARHI**AKSIYA BOZORI**

Aksiyalar bozorida savdolar hajmi 6,83 trln so'm (534,48 mln dollar)ni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 4,51 trln so'mga yoki 3 barobarga oshgan. Savdolarning asosiy hajmi (6,49 trln so'm) pulsiz hisob-kitoblar platformasi (Free of Payment Board, FoP) hissasiga to'g'ri keldi.

Aksiyalar bozorida savdolarning o'rtacha kunlik hajmi 36,34 mlrd so'm (2,84 mln dollar)ni, bitimlarning o'rtacha kunlik soni esa 1 456 tani tashkil etdi.

Aksiyalarning bozor kapitallashuvi 25,51 trln so'mga yoki 11 foizga oshib, 267,93 trln so'm (22,20 mlrd dollar)ni tashkil etib, erkin muomalada bo'lgan aksiyalarning (free float) bozor kapitallashuvi esa 4,18 trln so'mni tashkil qildi.

9 oy yakuni bo'yicha Birjaning birja kotirovkalash varag'ida 93 ta aksiya emitentining 135 ta instrumentlari kiritilgan.

Aksiya bozorining asosiy ko'rsatkichlari

| | | 2021 | 2022 | 2023 | 2024 | 2025 |
|--------------------------------|-----------------|---------|-----------|-----------|-----------|-----------|
| Savdo hajmi | <i>mln so'm</i> | 928 073 | 3 394 137 | 2 217 746 | 2 321 723 | 6 831 226 |
| O'rtacha kunlik savdo hajmi | <i>mln so'm</i> | 4 963 | 18 547 | 11 988 | 12 550 | 36 336 |
| Bitta bitimning o'rtacha hajmi | <i>mln so'm</i> | 20 | 58 | 9 | 7 | 25 |
| Bitimlar soni | <i>dona</i> | 47 291 | 58 702 | 247 341 | 356 056 | 273 738 |
| O'rtacha kunlik bitimlar soni | <i>dona</i> | 253 | 321 | 1 337 | 1 925 | 1 456 |

| Emitent | Tikker | Yopilish narxi, bir aksiya uchun (so'm) | | | Savdo hajmi, mln so'm | | Bitimlar soni | |
|---------------------------------|--------|-----------------------------------------|------------|---------|-----------------------|---------------|---------------|---------------|
| | | 03.01.2025 | 30.09.2025 | Δ, % | 2024-yil 9 Oy | 2025-yil 9 Oy | 2024-yil 9 Oy | 2025-yil 9 Oy |
| Aloqabank | ALKB | 0,40 | 0,44 | 10,00% | 98,44 | 46 441,38 | 3 307 | 13 957 |
| Hamkorbank | HMKB | 24,59 | 30,99 | 26,03% | 1 658,80 | 18 878,76 | 12 209 | 9 698 |
| O'zRTXB | URTS | 3 600,00 | 4 510,00 | 25,28% | 12 147,77 | 13 988,41 | 8 732 | 19 091 |
| Universal bank | UNVB | 9 000,00 | 8 597,00 | -4,48% | 9 125,91 | 8 976,21 | 1 143 | 678 |
| Elektrqishloqqurilish | EQQU | 369 000,00 | 301 000,00 | -18,43% | 5 857,43 | 7 538,51 | 164 | 181 |
| O'zbektelekom | UZTL | 3 911,00 | 5 894,00 | 50,70% | 2 952,58 | 2 455,68 | 14 476 | 7 394 |
| O'zmetkombinat | UZMK | 4 181,00 | 3 750,00 | -10,31% | 5 203,64 | 1 878,24 | 7 103 | 3 506 |
| Qizilqumsement | QZSM | 1 495,01 | 822,90 | -44,96% | 1 792,78 | 1 758,19 | 8 443 | 12 505 |
| Chilonzor buyum savdo kompleksi | CBSK | 1,99 | 2,19 | 10,05% | 1 481,57 | 1 401,79 | 13 206 | 15 509 |
| O'zbekinvest | UZINP | 1 100,00 | 1 207,00 | 9,73% | 1 033,14 | 928,76 | 4 419 | 4 602 |

* Aksiyalar bozori bitimlari hajmi bo'yicha qimmatli qog'ozlarning Top-10 taligi, "Main-Board"

UCI INDEKSI

Davr yakunlariga ko'ra, UCI indeksi 7,01 foizga oshib, 701,05 punkt darajasida yopildi.

2025-yil 9 oyligi uchun UCI indeksi grafigi



OBLIGATSIYALAR BOZORI

Korporativ obligatsiyalar bozorida savdolar hajmi 662,94 mlrd so‘m (51,80 mln dollar)ni tashkil etib, 2024-yilning 9 oyiga nisbatan 547,02 mlrd so‘mga yoki 6 barobardan ko‘proqqa oshdi.

Obligatsiyalar bozorida savdolarning o‘rtacha kunlik hajmi 3,53 mlrd so‘mni, o‘rtacha kunlik bitimlar soni 39 tani tashkil etdi.


Birja kotirovkalash varag‘iga kiritilgan obligatsiyalarning bozor qiymati 1,50 trln so‘m (124,66 mln dollar)ni tashkil qildi.

Davr yakuni bo‘yicha Birjaning birja kotirovkalash varag‘ida 11 ta obligatsiya emitentining 19 ta instrumentlari kiritilgan.

Obligatsiya bozorining asosiy ko‘rsatkichlari

| | | 2021 | 2022 | 2023 | 2024 | 2025 |
|--------------------------------|----------|--------|---------|--------|---------|---------|
| Savdo hajmi | mln so‘m | 58 203 | 101 328 | 80 158 | 115 920 | 662 940 |
| O‘rtacha kunlik savdo hajmi | mln so‘m | 311 | 554 | 433 | 627 | 3 526 |
| Bitta bitimning o‘rtacha hajmi | mln so‘m | 206 | 2 980 | 309 | 48 | 90 |
| Bitimlar soni | dona | 283 | 34 | 259 | 2 429 | 7 382 |
| O‘rtacha kunlik bitimlar soni | dona | 2 | 0,2 | 1 | 13 | 39 |

Obligatsiyalar kartasi



LISTING

9 oy yakunlari bo'yicha birja kotirovkalash varag'ida 102 ta emitentning 154 ta instrumentlari joy olgan.

Hisobot davrida 14 ta emitentning 18 ta yangi instrumentlari - 8 ta korporativ obligatsiyalar va 10 ta aksiyalar chiqariluvini kiritildi.

LISTINGDAN TASHQARI SAVDO MAYDONCHASI

9 oy yakunlariga ko'ra, Birjaning listingdan tashqari savdo maydonchasida 47 248 ta bitim tuzildi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 24 foizga ko'pdir.

Savdolar hajmi 6,51 trln so'm (505,63 mln dollar)ni tashkil etdi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 6 baravarga oshgan. Jami 192 ta emitentning qimmatli qog'ozlari bitimlar obyektiga bo'ldi.